



CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK
MUHANDISLIK BILIM YURTI

"HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB
MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR"

XALQARO ILMIY - AMALIY
KONFERENSIYA

2022 yil 14 dekabr



II TOM



UO'K 355.48(063)

KBK 68.3

“Harbiy kadrlarni tayyorlashning dolzARB muammolari: yechimlar va takliflar”: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, II-tom (Chirchiq shahri 2022- yil 14- dekabr).- Chirchiq, 2022.- 426 b.

H.f.d. (DSc), professor, polkovnik S.S.Abdurayimovning umumiyl tahriri ostida.

Harbiy hamkorlikdagi ishonchli va do‘stona munosabatlarni yanada rivojlantirish, harbiy kadrlarni tayyorlashning oqilona va samarali modellarini yaratish, professor-o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar ko‘lami va sifatini kengaytirish bo‘yicha fikrlar almashish anjumanning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Anjuman materiallarida harbiy kadrlarni tayyorlashda ilg‘or mamlakatlar tajribalarini tahlili va eng samarali usullarni harbiy ta’lim tizimiga tatbiq etish istiqbollari, O‘zbekiston Respublikasining mintaqada ahil qo‘snnichilik tashqi siyosati kesimida harbiy xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi bosqichini ko‘rib chiqish, harbiy kadrlarni tayyorlashda ilg‘or davlatlar tajribalarini o‘rganish, uning o‘ziga xos jihatlari, harbiy pedagoglarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni olib borish kabi masalalarda xorijiy va mahalliy ekspertlar fikr va mulohazalaridan kelib chiqib kelgusida harbiy kadrlar tayyorlashni rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi samarali takliflar keltirilgan.

Tahrir hay’ati:

Abdurayimov S.S., h.f.d. (DSc), professor, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti boshlig‘ining o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rnibosari

Otamatov M.A., bilim yurti ilmiy-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

Usmanov X.X., ilmiy-uslubiy bo‘lim boshlig‘ining o‘rnibosari

Vorisova R.S., kimyo fanlari nomzodi, kafedra mudiri

Hamroqulov G.B., kimyo fanlari nomzodi, dotsent, kafedra professori

Ramonova S.K., p.f.f.d. (PhD), kafedra dotsenti

Xolmatov H.H., kafedra dotsenti

Parpiyeva A.J., katta o‘qituvchi

Xudoyqulova S.I., katta o‘qituvchi

Mekambayev B.A., katta o‘qituvchi

Ibragimova D.A., katta o‘qituvchi

Mamatqulova B.R. o‘qituvchi

Daminova Ch.Z., o‘qituvchi

Erkinova S.K., o‘qituvchi

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti Ilmiy kengashining 2022- yil, 24- dekabrdagi qarori 10 - sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.



FANLARARO BOG'LIQLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KURSANTLARNING TEXNIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

FORMING TECHNICAL THINKING OF STUDENTS THROUGH DEVELOPMENT OF INTERDISCIPLINARY CONNECTION



Himmataliyev Do'stnazar Omonovich
Himmataliyev Dostnazar Omonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika va menjment” kafedrası
Chirchik State Pedagogical University,
Department of "Pedagogy and Management"



Amirova Zarifa Fayzilloyevna
Amirova Zarifa Faizilloevna

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Umumtexnika fanlar kafedrası
Chirchik Higher Tank Commanding Engineering School
Department of General Technical Sciences

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy harbiy ta'larning ma'lum bir yo'nalishida tahlil olayotgan kursantlarning texnik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan fanlarning integratsiyasi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: harbiy ta'lim va tayyorgarlik, texnik tafakkur, zamonaviy o'qitish usullari, ilmiy mavzular integratsiyasi, fanlararo integratsiya, dasturlash tuzilmasi, kompleks tayyorgarlik, o't o'chirishga tayyorlik.

Abstract. This article deals with the integration of disciplines that play a key role in shaping the technical thinking of cadets studying in a specific area of higher military education..

Keywords: military education and training, technical thinking, modern methods of teaching, integration of science topics, interdisciplinary integration, programming structure, science complex, integrated learning, shooting readiness.

Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, ularning bilimiga, jangovar tayyorgarligiga, qurol-aslaha va harbiy texnikalarga munosabatini shakllantirib borish asosida har tomonlama chinakam vatan himoyachilari etib tayyorlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoxqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida ushbu masalalar bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, harbiy kadrlarni o'qitishda ularning texnikaviy bilimlarini oshirish, qurol-aslaha va harbiy texnikalarning takomillashgan turlarini yaratishga undovchi, mustaqil izlanishga, texnika va mexanizmlarning modernizatsiyalashtirilgan turlarini yaratishga imkon beruvchi, shuning bilan kursantlarning mustaqil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga asos bo'luvchi innovatsion g'oyalarni shakllantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish asosida kursantlarning texnik tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kursantlarda texnik tafakkur qilish (analiz, sentiz, taqqoslash, umumlashtirish) imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun muhimdir. Ular texnik bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi.



“Tank qo’shinlari taktik muhandisligi” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar o’zlarining fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarliklariga asosan quyidagi turdagি kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkin:

qo’mondonlik: muhandis, katta muhandis, kichik komandir, komandir va unga teng lavozimlar;

qo’mondonlik shtab lavozimlarida: bo’linmalarda shtab boshlig'i lavozimlaridagi harbiy xizmat va unga teng bo’lgan lavozimlarda;

o’quv-tarbiyaviy lavozimlarda: tank qo’shinlari taktik muhandisligi qo’mondonlik komandiridan boshlab, eskadron komandirigacha bo’lgan lavozimlarda [1].

Bo’lajak harbiy muhandislarning o’quv rejaga muvofiq holda fanlararo integratsiya asosida texnik tafakkurini rivojlantirishni keltirib o’tamiz. Buning uchun o’quv rejani tahlil qilish natijasiga ko’ra «Tank qo’shinlari taktik muhandisligi» yo’nalishi bo’yicha integratsiyalangan ta’lim dasturi tuzilmasi ko’rib chiqildi.

Keltirib o’tilgan o’quv rejaga muvofiq fan bloklaridan tegishli fanlarni tanlab olamiz:

1-blok: Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlardan: Milliy g’oya: O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, Fizika, Chizma geometriya va muhandislik grafikasi, Tabiiy-ilmiy tanlov fan (Ekologiya, Kimyo)...;

2-blok: Umumkasbiy fanlardan: Harbiy muhandislik tayyorgarligi, Otish tayyorgarligi, Nazariy va amaliy mexanika, Umumiyl taktika...;

3-blok: Ixtisoslik fanlardan: Qurollarni boshqarishning avtomatik tizimi, Zirhli tank qurollarining tuzilishi, Jangovar mashinalarni haydash, Bo’linmalarni kundalik faoliyatini boshqarish...

4-blok: Qo’shimcha fanlar: Avtomobil tayyorgarligi, Harbiy huquq asoslari... .

Fanlararo integratsiyani amalga oshirishdan asosiy maqsad ta’lim jarayonida kursantlarni tadqiqotchilik, loyihalash, modellashtirish kompetensiyalari orqali ularning texnik tafakkurini shakllantirishdan iborat.

Bilim yurti o’quv rejasidan tanlab olingan beshta fanga quyidagi talablar qo’yilgan (kursantlar bilishi lozim):


1. *Tabiiy-ilmiy tanlov fan*: Kimyo fani fundamental fan hisoblanib, harbiy mutaxassisni tayyorlashda komyoning o’qitilishi uning nazariy asosini o’rganishini ta’minlaydi, kursantlarning umumtexnik, harbiy, harbiy-texnik va maxsus fanlarni chuqr o’zlashtirishlari uchun bilim va ko’nikmalarini hosil qiladi.

2. *Harbiy muhandislik tayyorgarligi*: Taktik raketa artilleriya va o’q-dorilari qo’mondon muhandisligi, Tank qo’shinlari taktik muhandisligi va Artilleriya taktik qo’mondonligi yo’nalishlari bo’yicha mutaxassislar tayyorlashda “Harbiy muhandislik tayyorgarligi” o’quv fani asosiy fanlardan biri hisoblanadi va jangda muhandislik ta’mintoni tashkillashtirish hamda umumqo’shin bo’linmalar tomonidan muhandislik ta’mintoni vazifalarini amalga oshirishni o’z ichiga oladi. Ushbu fan o’quv rejaning umumkasbiy fanlar blokiga taalluqli bo’lib, u kursantlarga 1-3 bosqichlarda o’qitilishi maqsadga muvofiq. Uni o’qitish uchun “Taktika”, “Boshqaruv faoliyati asoslari”, “Bo’linmalar kundalik faoliyatini boshqarish”, “Harbiy topografiya”, “Boshqaruv va aloqa vositalari”, va “Radiatsion, kimyoviy, biologik himoya” fanlari nazariy zamin bo’lib xizmat qiladi hamda fanning o’zi “Taktika” fanining asosiy qismlari uchun nazariy (ilmiy) zamin bo’lib xizmat qiladi.

3. *Zirhli tank qurollarining tuzilishi*: Zirhli tank qurollarini namunalarining tugun, agregat va tizimlarining tuzilishi, ularda bo’lib o’tadigan fizik hodisalar va jarayonlar, texnik




ishlatish va xizmat ko'rsatishni o'rorganish jarayoni kursantlarni matematik, umumilmiy va umumtexnik fanlar bo'yicha bilimlari asosida amalga oshiriladi. Fanni o'rorganish natijasida kursantlarda texnik to'g'ri qarolarni qabul qilish, zirhli tank qurollarni ekspluatatsiya qilish va jangovar shay holatda saqlash bo'yicha ko'rsatmalarni bera ola bilish, havo-desant qo'shinlarning shaxsiy tarkibi bilan texnik tayyorgarlik bo'yicha mashq'ulotlarni tashkillashtirish va uslubiy to'g'ri o'tkazish bo'yicha malakalarini singdirish.



1-rasm. Zirhli tank qurollarining tuzilishi fanini o'qitishda fan mavzulari aro integratsiya

Zirhli tank qurollarining tuzilishi umumkasbiy fanidan umumiy mehnat hajmi o'quv rejaga muvofiq 176 soathi tashkil etadi. Shundan 100 soat auditoriya mashq'ulotlari, 76 soat mustaqil tayyorgarlik mashq'ulotlari. Bundan tashqari ushbu fan ma'reza, amaly, guruhi va mustaqil ta'lim mashq'ulotlar kabi shakllarga ega.

Zirhli tank qurollarining tuzilishi umumkasbiy fanlarni o'qitishda fan mavzulararo grizontal va sirkulyatsion integratsiya 1-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Fanlararo integratsiya



Otish tayyorgarligi: “Tank qo’shinlari taktik muhandisligi” yo’nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda “Otish tayyorgarligi” o’quv fani asosiy fanlardan biri hisoblanadi va jangda o’t ochishni tashkillashtirish hamda maxsus bo’limmalar tomonidan o’t ochishga qo’ylgan vazifalarini amalga oshirishni o’z ichiga oladi. Ushbu fan o’quv rejaning umumkasbiy fanlar blokiga taalluqli bo’lib, u kursantlarga 1-4 kurslarda o’qitilishi maqsadga muvofiq. Uni o’qitish uchun “Taktika”, “Boshqaruv faoliyati asoslari”, “Bo’linmalar kundalik faoliyatini boshqarish”, “Harbiy topografiya”, “Boshqaruv va aloqa vositalari”, “Tog’ tayyorgarligi” va “Jismoniy tayyorgarlik” fanlari bilan bog’liq bo’lib “Otish tayyorgarligi” fanining asosiy qismlari uchun nazariy zamin bo’lib xizmat qildi.

Avtomobil tayyorgarligi: Kursantlarga “Avtomobil tayyorgarligi” fanini o’zlashtirish natijasida quyidagilar haqida tasavvurga ega bo’lishlari lozim: avtomobilning tuzilishi va unga texnik xizmat ko’rsatish haqida; avtomobilga №1 va 2 texnik xizmat ko’rsatish ishlash hajmi va tartibi haqida; yo’l hujjatlarini rasmiylashtirish haqida bilish va qo’llash.

Zirhli tank quollarining tuzilishi umumkasbiy fanini to’rtta fan bilan vertikal integratsiyasini amalga oshiramiz (2- rasm.).

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kursantlarning texnik tafakkurini shakllanganlik darajasi o’qituvchi tomonidan mashg’ulot davomida ularga belgilangan o’quv axborotining hajmi va xususiyati bilan belgilanadi. Kursantlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va texnik tafakkurning shakllanganligi tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha materiallarni o’zlashtirish imkoniyati, shuningdek mashg’ulotning xususiy didaktik maqsadlariga erishish darajasiga bog’liq.

Bo’lajak ofitserlarning texnik tafakkurini fanlararo bog’liqlik asosida shakllantirishda birinchidan, fan bloklaridan ta’lim berishda kompetensiyalarni (pedagogik, loyihalash, tadqiqotchilik, harbiy muhandislik, modellashtirish) ta’lim shakllarini (ma’ruza, amaliy, guruhli, mustaqil tayyorgarlik, o’quv amaliyoti) inobatga olgan holda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llab o’qitish maqsadga muvofiqdir.

Kursantlarda texnik tafakkur qilish (analiz, sentiz, taqqoslash, umumlashtirish) imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar-o’zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun muhimdir. Ular texnik bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so’ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Amaliy topshiriqlarni bajarish yoki mustaqil ravishda ishlash hamda natijalarni taqdim etish texnik tafakkurni samarali rivojlantirish imkonini yaratadi. Bunda amaliy mashg’ulotlarni bir qator interfaol metodlar: “Konstruktor”, “Qora quti”, “Assessment” “T-Sxema”, “Texnik obe’ktlarning o’xshashini topish”- bir-biri bilan mutlaqo kam bog’langan yoki mutlaqo bog’lanmagan 2 ta texnik obyektni olib o’zaro o’xshash jihat (belgi)larni topish kabilarni qo’llagan holda olib borishni tavsiya etdik.

Foydalilanigan manbalar:

1.O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi «Tank qo’shinlari taktik qo’mondonligi» yo’nalishi bo'yicha DTS va malaka talablari.

2.Z.X.Abdinazarova, Pedagogik texnologiyalarning kursantlar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta’siri. Psix.fan.nomz. diss.- Toshkent, 2012. – 144 b.

3.Z.Sh.Alimardonov, Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo’lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish// p.f.f.d. (PhD) dis...avtoreferati.–Samarqand. -2019.-52 b.



4.A.G.Asmolov, Psixologiya lichnosti. -M.: Izd-vo- MGU, 1990.-368 s.

5.Z.F.Amirova, Development of technical thinking of cadets using interactive methods. // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – India, 2022. – Vol. 9, Issue 1. pp. 18879-18884.(05.00.00; № 9).